TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

05/2026



ADIB KIM? NAZAR ESHONQUL

LABIRINTGA YO'L

IBLISGA ISYON

SHE'R BOR

"4K" MODELI

mundarija



12

Rasmiy matnlar



"4K" MODELI

32

Yangiliklar 4

IJOD MAKTABLARI

Shahobiddin RASULOV
Har qalbda bir she'r bor 6

TILSHUNOSLIK

Bashorat BAHRIDDINOVA
Rasmiy matnlar punktuatsiyasi 12

ADIB KIM?


Dilrabo MINGBOYEVA
Nazar Eshonqul labirintiga yo'l 18



18

ADIB KIM?

40



Tavba unga Iblis tortiq qilgan “sarob”larni tanib olish va ulardan yuz o‘girish qudratini beradi. So‘z Nur holatiga kelishi uchun ruh avval mana shu tavba olovida toblanishi, majhul kuchning botiniy zanjirlarini bag‘ir qoni bilan yuvib tashlashi shart.

METODIK TAVSIYA

Komila RAJABOVA
“4K” modelida “Tafakkur laboratoriyasi”. 32

JAVOHIRLAR SANDIG‘I

Karomat MULLAXO‘JAYEVA
Muhabbat manzumasi 36

YURAK SOZI

Munisjon HAKIMOV
Iblisga isyon. 40

ILMIY TADQIQOT

Gulruh BAHODIROVA
Zamonaviy terminologik nazariyalar evolutsiyasi. 45

ПРЕПОДАВАНИЕ ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ 49

ПРЕПОДАВАНИЕ



ZAMONAVIY TERMINOLOGIK NAZARIYALAR EVOLUTSIYASI

Gulruh BAHODIROVA
Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti vazifasini bajaruvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Terminologiya tarixi uzoq davrlarga borib taqalsa-da, uning alohida o'rganilishi hamda fanlar sistemasida namoyon bo'lishi unchalik uzoq tarixga ega emas. Jahon tilshunosligida terminologik tizimlar, xususan, sohaviy leksikani kompleks o'rganish va uning umumxalq tilining tarkibiy qismi sifatidagi ahamiyatini ochib berish borasida hozirgi kunga qadar son-sanoqsiz tadqiqotlar bajarildi. Krister Lauren va Heribert Picht 1993-yili Venada nashr etilgan "Terminologiyaga oid tanlangan matnlar" asarida klassik terminologiyaga aloqador uchta asosiy maktabni e'tirof etadi: Vena, Praga hamda Moskva. Bunga qo'shimcha ravishda Kanada, Shimoliy mamlakatlar va Manchester universiteti Fan va texnologiya instituti (*University of Manchester Institute of Science and Technology,* UMIST) qoshidagi ayrim tadqiqot markazlarini ham sanab o'tadilar [8: 493].

Keyinchalik terminologiyani yangicha konsepsiyalar asosida o'rganuvchi bir qator zamonaviy va milliy maktablar yuzaga keldi. Bu esa terminologiyada ikki oqimning ajratilishiga sabab bo'ldi.

Mazkur tadqiqotda terminologiya nazariyasining evolutsion rivojlanishini tizimli va kompleks yondashuv asosida tahlil qilish maqsadida bir nechta ilmiy metodlardan foydalanildi. Jumladan, sistematik adabiyotlar tahlili, qiyosiy-tahliliy metod, konseptual tahlil hamda deskriptiv metod tadqiqotning asosiy metodologik tayanchini tashkil etdi. Ushbu metodlarning kompleks qo'lla-

UZ

Annotatsiya. Mazkur maqolada terminologiya fanining shakllanish va rivojlanish bosqichlari tarixiy, nazariy va metodologik nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. An'anaviy preskriptiv terminologiya tamoyillaridan boshlab, XX asr oxiri – XXI asr boshlarida shakllangan kognitiv va kommunikativ yondashuvlarning ilmiy asoslari ochib beriladi. Termin tushunchasining konseptual, diskursiv va pragmatik talqinlari qiyosiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda ilmiy adabiyotlarni sistematik tahlil qilish, kontent-analiz va qiyosiy metodlardan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: terminologiya, an'anaviy yondashuv, zamonaviy yondashuv, kognitiv yondashuv, kommunikativ paradigma, termin evolutsiyasi, konsept, diskurs, semantika.

EN

Annotatsion. This article analyzes the stages of formation and development of the science of terminology from a historical, theoretical and methodological point of view. Starting from the principles of traditional prescriptive terminology, the scientific foundations of cognitive and communicative approaches formed in the late 20th and early 21st centuries are revealed. Conceptual, discursive and pragmatic interpretations of the concept of a term are comparatively analyzed. The study used systematic analysis of scientific literature, content analysis and comparative methods.

Keywords: terminology, traditional approach, modern approach, cognitive approach, communicative paradigm, term evolution, concept, discourse, semantics.

RU

Аннотация. В данной статье анализируются этапы формирования и развития науки о терминологии с исторической, теоретической и методологической точек зрения. Отталкиваясь от принципов традиционной нормативной терминологии, раскрываются научные основы когнитивного и коммуникативного подходов, сформировавшихся в конце XX и начале XXI веков. Проводится сравнительный анализ концептуальных, дискурсивных и прагматических интерпретаций понятия термина. В исследовании использованы систематический анализ научной литературы, контент-анализ и сравнительные методы.

Ключевые слова: терминология, традиционный подход, современный подход, когнитивный подход, коммуникативная парадигма, эволюция термина, понятие, дискурс, семантика.

nilishi tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini oshirish, terminologiya nazariyasidagi muammolarni ko‘p qirrali yondashuv asosida ochib berish hamda umumlashma xulosalar chiqarish imkonini ta’minladi.

Jahon klassik-an’anaviy terminologiyasining shakllanishi XIX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. A. Reyning fikricha, “terminologiya” so‘zi fransuz tilida dastlab “hech kim tushunmaydigan jargon so‘z” sifatida uzoq vaqt salbiy ma’noda qo‘llangan. 1830–1840-yillar oralig‘ida yozilgan manbalarda uning hozirgi xususiyati aniq ma’noga ega bo‘lgan sohaga oid nomlar va ularni tartibga solish bilan shug‘ullanuvchi fan tarmog‘iga ishora uchraydi. Xususan, mazkur termin ingliz tilida ham ancha oldin qo‘llangan bo‘lishiga qaramay, yaqin tarixgacha alohida fan sohasi sifatida e’tiborni tortmagan. XX asrga kelib ilm-fan va texnika taraqqiyoti sababli xalqaro standartlashtirish ehtiyojining paydo bo‘lishi tom ma’nodagi terminologiya fani rivojiga zamin hozirlagan [11: 16].

Bevosita klassik terminologiya nazariyasiga asos solinishi avstraliyalik olim, Vena terminologiya maktabining yetakchisi Evgen Vuster (1898–1977) hamda rus olimi, Moskva terminologiya maktabi vakili Dmitriy Semyonovich Lottening (1898–1950) texnik terminologiyani standartlashtirish va unifikatsiya qilish muammolariga doir ilmiy izlanishlariga borib taqaladi. Bu nazariya 1947-yili xalqaro aloqa va hamkorlikni yaxshilash hamda xalqaro savdodagi to‘siqlarni kamaytirish uchun universal standartlarni ishlab chiqish maqsadida tashkil etilgan Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (*International Organization for Standardization,* ISO) [10] tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi bilan ahamiyatli.

Manbalarda an’anaviy terminologiya taraqqiyotida E. Vuster, D. S. Lotte, S. A. Chapligin, E. K. Drezen, H. Felber, G. O. Vinokur, A. A. Reformatskiy, O. S. Axmanova va boshqalarning nomi alohida tilga olinsa, zamonaviy terminologiya nazariyasining takomillashuvi bevosita M. T. Kabre, R. Temmerman, S. V. Grinev, V. M. Leychik, A. V. Superenskaya, G. G. Hakimova, V. P. Danilenko va boshqalarning faoliyati bilan bog‘lanadi.

Zamonaviy terminologiyaning taniqli vakillaridan biri ispan terminologi, kommunikativ terminologiya nazariyasi asoschisi Mariya Tereza Kabre Kastelvi 1993-yili Barselonada nashr etilgan “Terminologiya: nazariya, metodologiya, tatbiq” kitobida sohaning mustaqil, fan ekaniga doir qarashlarga e’tiroz bildiradi. “Har qanday holatda ham, – deydi u, – terminologiyani avtonom fan deb bo‘lmaydi. Terminologiyaga umumfan nuqtayi nazaridan yondashish zarur, chunki u boshqa fanlar bilan bog‘langan holda mazkur fanlarga oid ma’lum tushunchalarni o‘z ichiga oladi” [1: 36, 71]. Keyinchalik 1998-yili chop etilgan “Terminologiya nazariyasi uchun materiallar: muqobil paradigma sari” maqolasida yuqoridagi fikrini tasdiqlab, “transdisiplinar nuqtayi nazardan, ixtisoslashgan bilim va kontekstni o‘rganish uchun terminologiyadan foydalanmaydigan biror fan yo‘q”[2: 59] tarzida qat’iy xulosalaydi.

Shuningdek, so‘nggi yillarda terminologiyaga bag‘ishlangan turli xalqaro anjuman va forumlarda aksariyat munozaralar klassik terminologiyaning hozirgacha yetakchilik qilib kelayotgan o‘zgarmas nazariy tamoyillari hamda zamonaviy qarashlar o‘rtasidagi nomuvofiqliklar atrofida kechayotgani, terminlarni o‘rganishda an’anaviy nazariyalar bilan birga zamonaviy paradigmalarga ham zarurat borligini kun tartibiga qo‘yadi. Shundan keyin tanqidga olingan muammolar va ularning yechimiga doir qator maqolalari e’lon qilinadi. Jumladan, uning “Turli xillik va terminologiya haqida” (1995), “Tarjima uchun terminologik manbalar” (1998), “Terminologiya nazariyasi uchun materiallar: muqobil paradigma sari” (1998), “Terminologiya: tushuncha va kommunikatsiya” (1999), “Terminologiyaning muvaqqat nazariyasi zarurmi?” (1999), “Terminologiyaning yangi nazariyasi: tushunchadan kommunikatsiyagacha” (1999), “Terminologiya va hujjatlashtirish” (2000), “Tushunchalarning kognitiv ifodalanishi haqida: modellashtirishga urinish uchun asos” (2000), “Amaliy lingvistika terminologiyami?” (A.Adelshteyn bilan hammualiflikda, 2000), “Terminologiya nazariyalari: tavsifi, talqini va izohi” (2003) va boshqa ilmiy ishlarida muallifning zamonaviy terminologiya bo‘yicha nazariy, metodologik hamda amaliy jihatdan inqilobiy qarashlari o‘z ifodasini topadi.

Kabredan so‘ng terminologiya nazariyasini isloh qilish mavzusi ko‘plab mutaxassislarning diqqatini tortdi. Aksariyat bahslar E.Vusterning terminologik nazariyasiga asoslangan bo‘lib, unga ko‘ra termin tushunchaga ishora qiluvchi ikki tomonlama birlikdir. Xalqaro standartlashtirish tashkilotining ham terminologi-

yani “ixtisoslashgan tillarda qo‘llaniladigan tushunchalar va terminlarni ilmiy o‘rganish” deb ta’riflashi aynan shu tushuncha va termin munosabati haqidagi fikrlar atrofida kechdi.

Zamonaviy terminologiyaning yana bir taniqli vakili Silviya Monteroning ta’kidlashicha, yuqorida tilga olingan an’anaviy terminologiya maktablarining barchasi uchun konsepsiya terminologik tahlilning boshlang‘ich nuqtasi hisoblanib, ularda onomasiologik strategiya yetakchilik qiladi. “Vuster konsepsiya hatto tildan tashqarida ham mavjud bo‘lishi mumkinligini ta’kidlaydi va uni ta’riflashning eng yaxshi usuli uning konseptual tizimdagi o‘rnini aniqlashdir deydi, bu mantiqiy va ontologik munosabatlarni rasmiylashtirishdan boshqa narsa emas. Shu nuqtayi nazardan terminologiya yagona, avvaldan mavjud bo‘lgan konseptual tizimni ifodalashdan iboratdir. Atamalar bir xil, tarixiy bo‘lmagan, vaqtga to‘g‘ri kelmaydigan, ijtimoiy va mafkuraviy neytral tushunchani bildiradi, ya’ni subyektlar yoki voqelik bir xil va universal tarzda konsepsiyalanadi”[10].

M.Trojar esa Vusterning asli kasbi muhandis va tadbirkor ekani, u tarjimon, esperantist, interlingvist sifatida esperanto leksikografiyasi va terminologiyasi bo‘yicha monografiya va maqolalar yozgani, shu sababli esperant sifatida tilni ixtiro qilish, sun’iy yaratish mumkin deb ta’kidlaganiga diqqat qaratadi: “Vusterning terminologik nazariyasi onomasiologik xarakterga ega. Uning asosida atash emas, tushunchani ifodalash yotadi. Vusterning fikricha, termin muayyan tushunchani ifodalashi uchun semantik (konseptual) mohiyat kasb etishi shart emas. U lug‘atlarda izohlangan ma’nosi bilan qabul qilinishi lozim” [9: 56].

M.T.Kabre Vuster nazariyasining tanqidga uchrashiga sababni uning terminologik nazariyasi onomasiologik xarakterga egaligi, aksariyat sohalarning umumiy metodologik asoslari bir xil va universal ekani, u empirik bosqichlarni inobatga olmay, terminlarni unifikatsiyalash, ideallashtirishga uringani hamda professional kommunikatsiyada terminlardan foydalanish jarayoniga – kommunikativ-pragmatik va ijtimoiy-madaniy jihatlarga diqqat qaratmaganida deb biladi” [3]. Uning fikricha, “Til bu – so‘zlovchilarning voqelik haqidagi tushunchalari, qarashlarini aks ettiruvchi va odamlarga o‘z maqsadlari, fikrlarini ifodalash imkonini beruvchi tizim” [4: 3]. Shu bilan birga, boshqa tadqiqotchilar ham Vusterning konseptual tizim terminologik tizimdan oldin va undan kattaroq ahamiyatga ega ekanligiga doir qarashlarini birdek qabul qilmaydi. “Ideal atama ko‘rib chiqilayotgan tushunchaga berilishi kerak va bu munosabatlar shaffof va iloji boricha universal bo‘lishi kerak. Konseptual tizim terminologik tizimdan mustaqil ravishda tushuniladi va shuning uchun so‘zlardan farqli o‘laroq, atamalar kontekstga tobe emas: atamaning ma’nosi tushunchadir. Demak, atama voqelikning turli elementlari uchun shunchaki yorliqdir” [7: 31].

M.I.Kabre esa mavjud terminologik nazariyalarni keskin tanqid qilgan “Terminologiya nazariyalari: tavsifi, talqini va izohi” maqolasini shunday boshlaydi: “So‘nggi o‘nyillikda terminologiya nazariyasi turli munozaralarga sabab bo‘ldi. Ushbu maqolada oxirgi paytlarda mazkur mavzu nega katta qiziqish uyg‘otayotganining sabablari oydinlashtiriladi. Avvalo Vuster tomonidan ishlab chiqilgan nazariya tahlil qilinib, uning modeli ortida turgan motivlar aniqlanadi. Keyin nega Vuster nazariyasi uzoq davr tanqid qilinmagani, unga e’tiroz bildirilmagani sababi tushuntiriladi”[5: 169].

Olim ushbu maqolasida terminning yuzaga kelishi muayyan ilm-fan, texnika yoki ijtimoiy sohada yangi tushunchani aniq, ixcham ifodalash zarurati – terminologik ehtiyoj bilan bog‘liqligini ta’kidlaydi, bu masala kommunikativ terminologiya nazariyasi doirasida ko‘rilishini ilgari suradi. Zamonaviy terminologiyaning muhim tushunchalaridan biri bo‘lgan ushbu nazariyaga ko‘ra terminlar nafaqat tushunchalarni ifodalaydi, balki lingvistik, kognitiv va kommunikativ omillar ta’sirida paydo bo‘ladi, ommalashadi hamda muayyan funksiyani bajaradi. Ya’ni terminlar soha vakillari o‘rtasidagi muloqotni ta’minlaydi, diskurs va matnlar kontekstida shakllanadi. M.T.Kabrening terminologiya bo‘yicha kommunikativ nazariyasi haqidagi qarashlari o‘n yildan ortiq davom etgan keng qamrovli izlanishlarining cho‘qqisi hisoblangan, 2023-yili nashr etilgan “Terminologiya: tafakkur, til va kommunikatsiya” kitobida batafsil asoslab berilgan. Ushbu yangi nazariyaga ko‘ra diqqatni terminga emas, balki “terminologik birlik”ga qaratiladi va uch jihatga tayanadi: kognitiv (tushuncha), lingvistik (termin) va kommunikativ (muloqot). Muallif, shuningdek, terminologik metodologiyadagi o‘zgarishlar, matn korpusla-

rining sohaviy leksikadan foydalanishi, tarjima muammolariga to‘xtaladi. Uning ta’kidlashicha, terminologik birliklar mustaqil holda emas, balki amaliyot jarayonida terminologik qiymat kasb etadi va soha mutaxassislari tomonidan tartibga keltiriladi. Tarjimonlarning ham fan yuzasidan, ham lingvistik kompetensiyaga ega bo‘lishi ilmiy matnlarni tarjima qilishda terminlarning to‘g‘ri o‘zlashtirilishiga sabab bo‘lishini ta’kidlaydi [6: 182].

Bugungacha sohada amalga oshirilgan tadqiqotlarning aksariyati tanqidlarga uchrayotgan bo‘lsa-da, Vena maktabi vakili E.Vuster tomonidan ishlab chiqilgan terminologiyaning umumiy nazariyasi hanuz yetakchilik qilmoqda. Ayni paytda sohaga oid manbalarda termin va terminologiyaga berilgan ko‘plab ta’riflar quyidagi mazmunni umumlashtiradi: termin – ilm-fan, texnika yoki inson faoliyatining muayyan sohasiga xos maxsus tushunchalarni bildiruvchi, shu soha vakillari tomonidan qabul qilingan so‘z yoki so‘z birikmasi. Terminologiya esa tibbiyot, axborot texnologiyalari, falsafa, grammatika, til, adabiyot, matematika, musiqa – umuman, ilm-fanning barcha sohalari, shuningdek, umumxalq tiliga tegishli bo‘lgan maxsus so‘z va birikmalarni to‘plash, tahlil qilish, tarjima va talqin qilish muammolarini nazariy o‘rganish bilan shug‘ullanadigan fan hisoblanadi. Aksariyat nazariyalarda terminologiya uch ma’noda qo‘llaniladi:

1. Tushunchalar va atamalar o‘rtasidagi munosabatlarni tavsiflovchi alohida nazariya.

2. Terminlarni to‘plash, tavsiflash va taqdim etish faoliyati.

3. Maxsus fan sohasining lug‘at tarkibi.

Har qancha qadimiy bo‘lmasin, hozirga qadar ham jahon tilshunosligida terminlarning genetik qatlamlari, tarixiy-etimologik asosi, leksik-semantik, grammatik, derivatsion xususiyatlari, nomlanish mezoni, shuningdek, *termin, atama, nomen, professionalizm* tushunchalari atrofidagi bahs-munozaralar davom etmoqda. Jumladan, o‘zbek tilshunosligida ham terminologiya bo‘yicha katta hajmdagi ishlar bajarilayotgani, an’anaviy usullar bilan birga zamonaviy lingvistik paradigmalar ko‘zgusida yangicha izlanishlar olib borilayotganiga qaramay, muayyan terminotizimda yangi bir terminning paydo bo‘lishi, yangi ma’no kasb etishi yohud iste’moldan chiqishi bilan bog‘liq *terminologizatsiya, determinologizatsiya, reterminologizatsiya hodisalari;* yangi terminning yuzaga kelish omillari, terminlashuv – derivatsion jarayonning turli bosqichlariga aloqador *predtermin, kvazitermin, terminoid, prototermin, nomzod termin, termin token, gibrid termin* tushunchalari [12: 983]; terminning diskursiv tabiati bilan bog‘liq *professional jargon, professional argo* tushunchalari; *terminologik ehtiyoj, terminologik variantlilik*; raqamli til sharoitida *korpusli tahlil* va *terminlarni avtomatik qo‘llash* kabi masalalar hamon dolzarbligicha qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Cabré Castellví M.T. La Terminología: Teoría, metodología, aplicaciones. Barcelona: Ed. Antártida, 1993.
2. Cabré Castellví M.T. Elementos para una teoría de la terminología: hacia un paradigma alternativo. El Lenguaraz. Revista académica del Colegio de Traductores Públicos de la ciudad de Buenos Aires1/1: 59-78. 1998.
3. Cabré Castellví M.T. Terminología y lingüística: la teoría de las puertas abiertas. Estudios de lingüística del español, [en línea], Vol. 16, http://elies.rediris.es/elies16/Cabre.
4. Cabré Castellví M.T. La terminología en la traducción especializada. En: Gonzalo García, Consuelo: García Yebra, Valentín (eds.) Manual de documentación y terminología para la traducción especializada. Madrid: Arco/Libros. Colección: Instrumenta Bibliológica, 2004. p. 89-122. https://n9.cl/cq8gz
5. Cabré Castellví M.T. Theories of terminology: Their description, prescription and explanation // Terminology, Volume 9, Number 2, 2003, pp. 163–199 (37). https://www.ingentaconnect.com/content/jbp/term/2003/
6. Cabré Castellví M.T. Terminology: Cognition, language and communication, coll. IVITRA Research in Linguistics and Literature 36, Amsterdam / Philadelphia, John Benjamin, 2023. – 371 p.
7. Condamines A. Terminology et Représentation des Connaissances. Didaskalia 5: 29–43. 1994.
8. Laurén C., Picht H. Ausgewählte Texte zur Terminologie. – Wien: TermNet, 1993. – 539 s.
9. Mitja Trojar. Wüster's View of Terminology // Slovenski jezik – Slovene Linguistic Studies 11 (2017): 55–85.
10. Montero Martínez S. Estructuración conceptual y formalización terminográfica de frasemas en el subdominio de la oncología (Tesis de Doctorado). Alicante: Biblioteca Virtual Miguel de Cervantes, 2005. http://elies.rediris.es/elies19/
11. Rey A. Essays on Terminology. Amsterdam / Filadelfia: John Benjamins Publishing Company, 1995. – 236 p.
12. Bahodirova G. Interpretation of Embroidery Terms in Dictionaries. Excellencia: International Multi-Disciplinary Journal of Education, 2024. (2994-9521), 2 (6), 981-983.